



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## BADIY MATN TAHLILI

**Yu.X.Raxmonova,**

*Toshkent Davlat Transport Universiteti (Doktorant)*

[yulduzrahmonova91@gmail.com](mailto:yulduzrahmonova91@gmail.com)

<https://orcid.org/0000-0003-0912-8505>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183731>

**Annotatsiya:** Adabiyot yozuvchining emosiylarini, tuyg'ularini qalam orqali qog'ozga tushiriladigan va buni o'qigan kitobxonga xuddi shunday tuyg'ularni xis ettiraoladigan jarayondir. Adabiyot tili ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlardan iborat bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, sheva.

**Abstract:** Literature is a process in which the emotions and feelings of the writer are transferred to paper through a pen and paper, and the reader who reads it feels the same feelings. The literary language consists of synonymous, figurative, contradictory, multi-meaning, historical and archaic words, new constructions, dialect words, foreign and vulgar words.

**Keywords:** synonymous, figurative, contradictory, multi-meaning, historical and archaic words, dialect.

Tilshunoslar badiy asar tilini turli yo'llar bilan tahlil qilishgan. Chunki u o'ziga xos va murakkab ko'rinishga ega. Bu yo'nalishdagi tadqiqotchilaridan biri V.Vinogradov adabiyot tili haqida so'z yuritib uni ikki xil ma'noga ega ekanligini ta'kidlaydi: 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi «nutq» yoki «matn» (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil material) ma'nosida; 2) «san'at tili», badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida.[1]

Adabiyot va uning tili haqida gap ketganda, unga berilgan chiroyli ta'rifni aytib o'tish o'rinlidir: «Adabiyot - fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir»[2:12-13]. Bu fikrni buyuk ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat o'zining «Adabiyot qoidalari» qo'llanmasida keltirib o'tgan. Darhaqiqat, adabiyot yozuvchining emosiylarini, tuyg'ularini qalam orqali qog'ozga tushiriladigan va buni o'qigan kitobxonga xuddi shunday tuyg'ularni xis ettiraoladigan jarayondir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyot tili ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlardan iborat bo'lib, muayyan bir badiy asar ustida lisoniy tadqiqot olib borilganda unda ishlatilgan ana shunday so'zlar ajratib olinadi va ularning asarda ishlatilish maqsadi va vazifasi tahlil qilinadi. Masalan, ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ina'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini yana-da to'liq bajara olishini osonlashtiradi. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir inaqsadiga eng munosibini topib, ular orqali qahramonlar ruhiyati liamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahliüda, asosan, ilcki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi boisa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; 3) leksik- frazeologik ma'nodoshlik. Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi[3].

Yirik adib va adabiyotshunos P.Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: «haykallar misdan marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdar quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomiik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglari chiziqlar, bo'yoqlar vositasi biian emas, so'zlar vositasi bilar yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til har qanday adabiy asarning spesifikasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi»[4].

O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin[5].

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy – badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi.

2. Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi. 1. Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi. 2. Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi. 3. Konstruktiv vazifa – fikrlarni



# XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi. 4. Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Demak, Badiiy matn tahlilining asosiy maqsadi badiiy matndagi badiiy ma'no va badiiy mazmuni aniqlash asosida lingvopoetik butunlik sifatidagi matn baholashdan iborat bo'lmog'i lozim. Badiiy matnning lisoniy tahlili maxsus tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Badiiy matndagi poetik aktuallashuv fonografik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning har birida o'ziga xos tarzda kechadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виногра́дов В. В. Наука о языке художественной литературы и её задачи. — М., 1958;
2. Расунов Р. Умумий тилшунослик. - Тошкент, 2010. - Б.78 - 115
3. Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и театр. - М.: Наука, 1978. - С.32 - 33.
4. Жирмунский В.М. Проблемы сравнительно-исторического изучения литератур // Известия АН. Т.ХІХ. Вып. 3. - М., 1960. - С.183.
5. Raxmonova, Y. (2023). SEMANTIK O'ZGARISHGA TA'RIF. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
6. Raxmonova, Y. (2023). MATN VA USLUB. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5 (5).
7. *иностранных языков и лингвистики*, 5 (5).
8. Raxmonova, Y. (2023). TARJIMADA SO'ZLARINING QIYOSIY O'RGANILISHI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
9. Raxmonova, Y. (2023). KONSEPT TUSHUNCHASI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
10. Raxmonova, Y. (2023). Badiy matnni struktural tahlil qilish. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
11. Raxmonova, Y. (2023). TARJIMA TILIDA METAFORANING ISHLATILISHI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
12. *иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
13. Rakhmonova, Y. K. (2024). THE COMPLEXITY OF TRANSLATING HEMINGWAY'S SIMPLICITY: CHIASTIC PATTERNS IN THE SUN ALSO RISES. *World of Scientific news in Science*, 2(2), 701-709.
14. Raxmonova, Y. (2023). TARJIMANING TIL MUAMMOLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
15. Raxmonova, Y. (2023). TARJIMA TILIDA ASLIYATDAGI SEMANTIC MAYDON ("Alvido qurol" romani misolida). *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5 (5).
16. Raxmonova, Y. (2023). BADIY MATN TAHLILI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5 (5).
17. Raxmonova, Y. (2023). Badiy matnni struktural tahlil qilish. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).